

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY HUUJATLAR IJROSINI TA'MINLASHNING XORIJIY MODELLARI VA MILLIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

RESULTS OF THE DEVELOPMENT OF KHOREZM URBAN CULTURE DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS

Yusupov Shakir Khaitbayevich

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,

Acting Associate Professor, Department of History, Mamun University

Abstract. This article presents the results of research conducted at key urban-cultural centers of Khorezm during the reign of Amir Timur and the Timurids. Drawing on historical and archaeological evidence, it offers a scholarly and theoretical analysis of the reconstruction of cities, the development of trade networks, the establishment of garden and park landscapes, and the patterns of continuity and integration within architectural traditions.

Keywords: Qongiroi Sufis, Golden Horde, Devkeskan–Wazir, Khorezm Archaeological Expedition, Adaq, Tersak, Boldumsoz, Urgench, Khiva, caravan routes, mosque, mausoleum.

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM
SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI**

Yusupov Shakir Xaitbayevich

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori,

Ma'mun universiteti "Tarix kafedrası" v.b. dotsenti

Email: shakiryusupov75@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-7307-1158>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Xorazm shaharsozlik madaniyati markazlarida olib borilgan tadqiqotlar natijalari aks ettirilgan. Tarixiy va arxeologik manbalar asosida shaharlarning qayta tiklanishi, savdo aloqalarining rivojlanishi, bog'rog'lar yaratilishi hamda me'morchilik an'alaridagi o'zaro uyg'unlik masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qo'ng'iroi so'filari, Oltin O'rda, Devkeskan-Vazir, Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi, Adaq, Tersak, Boldumsoz, Urganch, Xiva, karvon yo'llari, masjid, maqbara.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N01>

Kirish. Amir Temur va temuriylarning Xorazmni egallashi voha uchun ham, markazlashgan saltanat qudratini oshirish yo'lida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Natijada mahalliy zodagonlar – Qo'ng'iroi So'filarining Oltin O'rda xonlaridan bo'linish harakati birmuncha kuchaydi, bu elatning kuchli davlat, markazlashgan saltanat tasarrufida bo'lishi vohada shahar madaniyatini qayta jonlantirdi. Savdo aloqalari yanada avj oldi. Chunki Xorazm shaharlari Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'lida joylashgan savdo markazlaridan biri edi. Amir Temurning Xorazmga yurishlari Oltin O'rda xonlarining viloyatga bo'lgan da'vosini susaytirdi. Xorazm o'zining Markaziy Osiyodagi avvalgi kuchli iqtisodiy,

siyosiy va madaniy mavqeyini nafaqat yo'qotmadi, balki yangi shakl va mazmunda qayta kashf etdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arxeologik tadqiqotlar natijalari va yozma manbalarda keltirilgan ayrim ma'lumotlar mohiyatan shu davrda sug'orish tarmoqlari tuzatilgani va yangilari bunyod etilganligidan dalolat beradi. Bu holat yagona saltanat xazinasini to'ldiruvchi omil bilan anglashiladi. Chunki sug'orish inshootlari taraqqiyotga, farovonlikka xizmat qilgan, mamlakatda soliq undiriladigan bazaning kengayishiga olib kelgan. Rasmiy saroy tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiy ta'biri bilan aytganda, "Temur ekin unadigan bir bo'lak yerning bo'sh qolishiga yo'l qo'ymagan", ya'ni "rasmiy tarixning ifoda etishicha, umuman, ekin yetishtirish mumkin bo'lgan yer bekor yotmagan"[4; 266-b.]. Amir Temur va temuriylar davrida shaharlar atrofida ulkan bog'lar barpo etilgan. Ularda turli xildagi daraxtlar va gullar yetishtirilgan[13].

Ustyurt pasttekisligida joylashgan Devkesgan – Vazir yodgorligining "pastki shahar" qismida saroy inshooti bilan uning atrofida krest-but-salb shaklidagi bog' – xiyobon qurilishlarining joylashuvi S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiya xodimlari tarafidan o'rganilgan[15; 300-b.]. Bu bog' majmuasi to'rtburchak devor bilan yaxshi mustahkamlangan. Uning o'rtasida ko'p xonali saroy qoldig'i joylashgan. Saroy atrofida oldinlari daraxtlar ekilgan xiyobonlar, to'g'ri yurgizilgan ko'ndalang yo'lka xiyobonlar barpo etilgan, ular kvadrat shakllarga bo'linib, o'nlab ariqlar o'tkazilgan uchastkalardan tashkil topgan. Oqibatda kvadrat shaklli to'rtburchakli majmua qaytadan to'g'ri burchakli to'rtta tarxga bo'lingan. Ular ham, o'z navbatida, sakkiz yoki yangi kvadratlarga bo'linadi. Ularda suv o'tkazilgan ariqlarda sersoya daraxtlar va mevazor mavjud bo'lgan. Ularning izlari oddiy ko'rinishda bugungi kungacha saqlangan. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqotchisi M.A.Orlovning fikricha, Devkesgan – Vazir bog'i XIV–XV asrlar bilan sanalanadi[11; 164-b.]. Devkesgan – Vazir bog' majmuasi rejasi Amir Temur va uning merosxo'rlari tomonidan Samarqand, Shahrisabz, Hirot, Toshkent vohalaridagi yangi shaharlar, obodonlashgan bog' majmualariga qiyosiy jihatdan juda ham yaqin[2; 38-b.]. Bu davrdagi bog'lar ikki xilda bo'lgan: birinchisi muntazam reja asosida sun'iy barpo etilgan bog'lar, ikkinchi toifadagi bog'lar qo'riqxonaga o'xshash bo'lib, tabiiy daraxtzorlardan foydalanilgan. Lekin bularda ham obodonlashtirish ishlari olib borilgan[12; 16-b.].

Tarixiy yilnomalardan biri Otamalik Juvayniyning (XIII asr) "Tarixi jahonkushoy" asarida Gurganj atrofidagi "Maishiyat qarorgohi – Bog'i Hurram" eslatib o'tiladi. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Jent bog' – xiyobon, Adaq – Oq qal'a, Shohsanam va Yorbakir yonidagi bog'lar aniqlangan[11; 156 – 167-b.]. Lekin Amir Temur va temuriylar davrida Orolbo'yi elatlari atrofida bog' – xiyobon majmualari (Devkesgan – Vazir) me'moriy tarhga amal qilgan holda, bog'dorchilik ilmiga oid temuriylar davri tajribasida umumiyashtirilib qurilgan. Mazkur jarayonda albatta temuriylar o'rtasidagi toj-u taxt mojarolarida oliy hokimiyatga talabgorlardan biri Sulton Husayn Boyqaro (1473–1506) Astrobod va Hirotidan Xorazm uchun bo'lgan kurashlarda qatnashib, Vazir (Devkesgan), Adoq, Tirsak (Shemaxaqal'a), Bo'ldumsoz, Urganch va Xiva, Hazorasp shaharlaridan o'z qarindoshi, ayni paytda g'animi Sulton Abu Saidga (1451–1469) qarshi urushlar (1460, 1461, 1462, 1462-yy.) olib bordi. Xorazm vohasi shaharlaridan Vazir va Adoq Sulton Husaynning tayanch joyi – suyanch maskaniga aylandi. Ilgari qayd etganimizdek, hatto Urganch bir muddat Sulton Husayn uchun poytaxt vazifasini ham bajargan edi.

Bu shaharlar Xorazmning shimoli-g'arbiy taraflarida joylashgan. Ya'ni, bu atrofda temuriylar ko'chmanchilar bilan shiddatli kurash olib borgan davrda ham ijtimoiy soha obyektlari, maxsus joylar, mudofaa istehkomlari qurilishi to'xtab qolmagan.

Umuman, qayd etilganidek, Amir Temurning markazlashgan davlatiga qo'shilgan Xorazm elatlarida osoyishta hayot qaror topib, o'zaro ichki urushlarga barham berilib, iqtisodiy o'sish jarayoni boshlandi. Tarixiy manbalar, arxeologik tadqiqotlar Amir Temur va temuriylar davrida Hazorasp, Xiva, Kat, Gurganj (Toshqal'a), Vazir (Devkesgan)ning shahar mudofaa devorlari, uy-joylar qayta qurilganini ta'kidlaydi. Shemaxaqal'a, Adoq, Mizdahkon, Toshqal'a, Oqqal'a, Puljoydagi temuriylar davriga oid arxeologik topilmalar bu davrning madaniy yuksalganini ko'rsatadi. Mizdahkon yodgorligidagi shaharsozlik taraqqiyoti arxeologik qazishmalar tufayli mukammal aniqlanmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Mizdahkon yodgorligining o'zida o'rganilayotgan davrda jome' masjidi ishlab turgan. Bu katta jamoat joyida qishki va yozgi namoz zallari, mehroblar, xonaqoh, namozgoh, hujralar va oshxona joylashgan.

G'arbiy Xorazmdagi Adoq yodgorligida ham maydoni mahobatli masjid o'rni o'rganilgan. Unda maxsus shayx xonasi joylashgan. XVI asrda Adoqni Mirxond "Fathnoma" asarida tilga oladi, XIX asrda Munis va Ogahiy asarlarida ham u haqda ma'lumot berilgan. Bu joyda 1461-yili temuriy sulton Husayn Boyqaro bir qancha vaqt yashaganligi tarixdan ma'lum.

Xorazmning shimoli-sharqiy nuqtalaridan biri Bag'dod yodgorligi. Bu yodgorlik Kat kabi kam o'rganilgan. Gurganjda ta'sis etilgan vaqf hujjatiga asoslangan akademik Y.G'.G'ulomov temuriylar davrida Bag'dod (eski Kerdor) kanali va shu nomli qishloq – elatning mavjudligini ta'kidlaydi[7; 178-b.]. Ya'ni, bu toponimlar shimoliy Xorazmning chekka hududlarida joylashgan kentlarga tegishli bo'lib, ular sharqiy Orol bo'ylab quyi Sirdaryo havzasiga tomon ketgan karvon yo'lida joylashgan qishloq manzilgohlaridan bo'lgan, degan o'rinli fikr tug'iladi. Bu fikrimizni chap qirg'oq Sirdaryo tarmoqlaridagi arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Muhokama. Xorazmning 1388-yili Movarounnahrqa qo'shib olinishi viloyatdagi shahar madaniyatining o'sishini to'xtatmadi. Arxeologik tadqiqotlar yakuni Janubiy Xorazm temuriylar davrida vayronagarchilik bilan emas, aksincha, "chig'atoylar merosi" sifatida shaharsozlik, hunarmandchilik va savdo aloqalari zamonasiga mos rivojlanganini ta'kidlaydi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasi shimoli-g'arbiy Orolbo'ylarida ham temuriylar davrida iqtisodiy-madaniy hayot rivojlanganini tasdiqlaydi. Bu hududda yangidan barpo etilgan mustahkamlangan, rivojlangan qurilish an'analaridan foydalangan holda keng hajmdagi qurilish ishlari amalga oshirilgani, yangi inshootlar bunyod etilgani Oqqal'a, Adoq, Vazir timsolida o'z aksini topdi.

Tadqiq etilgan davrda eski karvon yo'llari harakatda bo'lgan, yangi inshootlar qurilgan, hunarmandchilik o'sgan. Keyingi davr arxeologik tadqiqotlari natijasida Gurganjning Toshqal'a (Kaan mahallasi) deb nomlangan Amir Temur va temuriylar davridagi shahar markazidagi ko'plab hunarmandchilik va savdo joylari, rastalari ochildi[6; 467–497-b.]. Jumladan, 1952-yilgi Toshqal'adagi arxeologik qazishlar Gurganjning XV–XVII asrlardagi mudofaa inshootlari (qo'rg'on – minoralari, devor), savdo-hunarmandchilik mahallalarining mo'g'ullar davridagi namunada qayta tiklanganini va rivojlangan shahar bo'lganini ko'rsatadi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalari Amir Temur 1391-yilda qayta tiklashga buyruq bergan "Kaan" mahallasi (dahasi)ni Ko'hna Urganchdagi Toshqal'a bilan taqqoslash, aynanlashtirish imkonini beradi[16, 505-528]. Temuriylar davri tarixi bo'yicha taniqli tadqiqotchilardan biri

akademik B.A.Ahmedov yozma manbalar, xususan, Sharafuddin Ali Yazdiy ma'lumotlariga tayangan holda "buzilgan inshootlar" amir Muso tomonidan "qisqa vaqt ichida" tiklanib, shaharning (Gurganj) eski qiyofasi yangilanganligini ta'kidlaydi. Gurganj amir Yedigeyning 1408–1411-yillarda Gurganjda o'z raqibi Po'latxon bilan nizoda, qamalda, mudofaada bo'lgani, Abulxayrxonning ko'pming sonli askariga 1431-yili Gurganj aholisi bardosh berib, qarshilik ko'rsatgani akademik B.A.Ahmedovning "Amir Temur Gurganjni yer bilan yakson qilmay, faqat uning ayrim mudofaa inshootlarini" buzishga ko'rsatma bergan, degan fikrini tasdiqlaydi[3; 36-b.]. Bundan kelib chiqqan holda ishonch bilan aytish mumkinki, Sohibqiron Xorazmdagi 1372–1388-yillarda (jumladan, Gurganjda) behuda qon to'kilishiga yo'l qo'ygan Qo'ng'iro't So'filarini to'xtatish uchun ichki tarqoqlikka chek qo'yimoqchi bo'lib harakat qilgan.

Qadimshunoslar tomonidan o'rganilgan XV–XVII asrlarga tegishli savdo rastalari, hunarmandchilik mahallasi Amir Temur yurishlaridan so'ng ham Gurganj savdo markazi bo'lib qolganligidan dalolat beradi.

Amir Temur davriga oid yozma manbalarning biri Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Sohibqiron Xorazmga 1388-yilgi beshinchi yurishi vaqtida Gurganjdan qochgan dushmanlari Ilgimish O'g'lon va Sulaymon So'fining orqasidan o'z askarlarini yuborib, "Qumkent va Qira yo'lida jihod qilsin, muholifga yetkaylar", deb ma'lumot beradi[17; 119-b.]. S.P.Tolstov bu shaharning yozma manbalardagi Tirsak ekanligini eslatib o'tadi, Y.G'.G'ulomovning fikricha, Qumkent Shemaxaqal'a yodgorligiga to'g'ri keladi[14; 312-b.]. Ya'ni, akademik Y.G'.G'ulomovning arxeologik va manbashunoslik tadqiqotlariga tayaniladigan bo'lsa, Ustyurt tekisligida joylashgan o'rta asr shahri Shemaxaqal'a mohiyatan Qumkent ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu fikrimizni S.P.Tolstovning "shahar (Shemaxaqal'a) XVI–XVII asrlarda ham Vazir bilan birga Xorazmning g'arbidagi forpost xizmatini bajargan"[14; 284-b.], degan ta'kidi ham tasdiqlaydi.

Xivada muntazam olib borilgan qazishma ishlari natijasida ko'pgina sopol buyumlar qoldiqlari, jumladan, naqshli, sirlangan buyumlar va me'moriy bezaklar topilgan. Ular orasida temuriylar davriga mansub ashyolar e'tiborga loyiq. Birinchi guruhdagi topilmalarga rangli, sirlangan, jozibador bezakli sopol idishlar majmuasi xosdir. Ular ichida ochiq shakldagi idishlar – kosa, lagan, likopchalar mavjud.

O'simliksimon ramzlar Xiva topilmalarida bir-biri bilan o'zaro yaxlit ifodalangan. O'simlik novdalari, barglar, gul tasvirlari oq fonda (yuzadagi asosiy rang) to'yg'in kobalt bilan berilgan. Ularda Xitoyning ta'siri seziladi. Temuriylargacha O'rta Osiyoda Xitoydan olib kelinayotgan mahsulotlar ichida kobalt naqshli oq chinni idishlar ko'p bo'lgan. Lekin bu qimmatbaho chinni (seladon) o'rniga Xorazmda Oltin O'rda davrida mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan koshin idishlaridan ko'proq foydalanilgan[5; 138-b.]. Bu kulolchilik mahsulotlari keyinchalik Xorazmda, yuqorida qayd etganimizdek, "Temuriylar kulolchiligi" deb nom oldi[9, 69-70]. Xiva topilmalari temuriylar davrida ham mahalliy kulolchilikning yuksak taraqqiyot tamoyillarini ko'rsatuvchi jihatlardan hisoblanadi.

Jumladan, Xorazm shaharlarida koshinsozlik sohasi ancha taraqqiy qilgan. Koshinsozlik vohada aslida temuriylargacha juda yuqori pog'onaga ko'tarilgan edi. Shunday bo'lsa-da, ilgari qayd etganimizdek, bu davr yodgorliklarida "Samarqand chinnisi" deb nomlangan chinni koshinsozlik mahsulotlari Xorazm shaharlariga tarqaldi. Koshinsozlikda, asosan, bu elatga xos yutuqlar jamuljam bo'ldi. Jumladan, koshin idishlari deb nomlanuvchi kosa, piyola, tovoq, chiroq buyumlari biryuza, kobalt, ultramarin, oq bo'yoqlar bilan sirlanib, idishlarga rang-

barang naqshlar, bezaklar tushirilishi an'anaga aylandi[10; 119-b.]. Koshinkorlikdan xorazmliklar me'moriy qurilishlarni bezatishda ham foydalanib, bu borada katta yutuqlarga erishildi. Asosan, qizil va zarlash uslubida tayyorlangan mayolika va mozaika taxtachalari me'moriy obidalarda ko'p qo'llanilgan. Yozma manbalar mazkur fakti inkor etmagani holda, o'z o'rnida arxeologik ma'lumotlar Amir Temurdan so'ng bu xildagi sopol idishlar "Temuriylar kulolchiligi" mohiyatan katta me'moriy qurilishlarda va noyob sopol idishlarda o'z rivojini davom ettirganligini tasdiqlaydi. Bu esa Xorazm va Movarounnahr moddiy madaniyatida uzviy tutashish va o'zaro hamkorlikka asos bo'ldi. Taniqli olim A.A.Abdurazzoqovning ilmiy xulosalariga tayanib, yuqorida keltirib o'tganimizdek, temuriylar me'moriy obidalari koshini asosiy tarkibidagi kremnezem, ishqoriy moddalarning foiz ko'rsatkichlari "Movarounnahr yodgorliklari qurilishida Xorazm koshinpazlarining ta'siri juda kuchli ekanligidan darak beradi"[1; 62-b.].

Natijalar. Xorazmning shaharsozlik madaniyati asosan Movarounnahrdan tashqaridagi, Amir Temurga bo'ysunuvchi chekka elatlarning rivojlangan savdo markazlari bilan bog'liq temuriylar davri madaniyati umumiylikidan kelib chiqqan. Bunga Xivada topilgan tanga va mirilar misol bo'lib, bu Sohibqiron asos solgan dunyoviy savdo aloqalarining Xorazm vohasi shaharlarini ham o'ziga jalb qilganini ko'rsatadi. Shuningdek, Xorazmning Mizdahkon, Gurganj va Devkesgan yodgorliklarida ham Amir Temur va Ulug'bek tangalarining uchrashi qayd etilgan.

Amir Temur Xorazmga 1379–1380-yillardagi yurishlaridan so'ng Shahrisabz va Buxoroga Xorazmdan me'mor va quruvchi ustalarni jo'natgan. Bu vaqtda qurilgan Shahrisabzdagi Dor us-Saodat (Hazrati Imom) majmuasidagi Jahongir maqbarasi bunyod etilishida xorazmlik binokor ustalar ham qatnashgan. Jahongir maqbarasida tashqi kulohiy gumbaz qirrali gardishga o'rnatilib, ichki tarafdin qovurg'alar bilan mustahkamlangan. Bunday uslub va umumiy ko'rinish Movarounnahr me'morchiligining shunga qadar bo'lgan davri uchun xos emas. Mazkur uslub Ko'hna Urganchdagi Qo'ng'iro't So'filari (1360–1388) davrida qurilgan hashamatli To'rabek xonim maqbarasi ko'rinishiga yaqinlik va o'xshashlik kasb etadi[18; 58–59-b.]. Shohi Zinda ansamblidagi (Samarqand) Qusam ibn Abbos maqbarasidagi uch qavatli sag'ana sirti turli rangdagi bo'rtma parchinlar bilan qoplanganligini ham yuqorida ko'rib o'tdik. Bo'rtma parchinlar XIV asrdagi Xorazm me'morchilik uslubiga xos bo'lib, Amir Temur tarafidan Urganchdan olib kelingan ustalar tomonidan bajarilganligi shubha uyg'otmaydi[12; 72-b.].

Yana bir dalil, Buxorodagi Chashmai Ayub yodgorligining kulohiy gumbazi Movarounnahr me'morchiligiga emas, balki Xorazm me'morchiligiga xos bo'lganligi uni qurishda xorazmlik me'morlar ishtirok etganligidan dalolat beradi[12; 78-b.]. Bularning barchasi Amir Temur va temuriylar davrigacha ham va ular davrida ham Xorazm vohasining iqtisodiy holati, madaniy rivojlanishi Movarounnahr bilan an'anaviy uyg'unlikda davom etganligini ta'kidlaydi. Bu esa shaharsozlik madaniyati taraqqiyotida ikki madaniy-tarixiy hududning moddiy madaniyatidagi uzviylikni ham ko'rsatadi. Shaharsozlik madaniyatidagi taraqqiyot masalasini xorazmliklarning Movarounnahr ma'naviy muhitidagi roli bilan ham ko'rsatish mumkin.

Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fanning ilohiyot, fiqh, tibbiyot, falsafa, tarix, adabiyot va boshqa tarmoqlari keng rivojlandi. Bu davrdagi Movarounnahrda madaniy rivojlanish haqida gap ketar ekan, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida, Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asarlarida yuqorida sanalgan fanlarning xorazmlik

ayrim namoyondalari haqida qisqa, lekin o'ta qimmatli ma'lumotlar keltirilishini ta'kidlash joiz. Temuriylar davrida ilm-fan salohiyatini oshirib, ilmiy tafakkur rivojiga katta hissa qo'shgan Jaloladdin Ahmad al-Xorazmiy (ilohiyot olimi), Hofiz Mahmud Muxrik al Xorazmiy (faqih), Hafizaddin Muhammad ibn Nasuraddin Muhammad al-Xorazmiy (tarixchi, shoir) va boshqalar shular jumlasidandir[8; 15-b.].

Yozma va arxeologik manbalar shundan guvohlik beradiki, Amir Temur davrida Hazorasp, Kat, Xiva, Urganch shaharlarida mudofaa inshootlari mustahkamlanib, shahar me'morchiligi va yangi uy-joylar, mahallalar qurilishi qayta jonlandi. Markazlashgan davlatga qo'shilgan Xorazm shaharlarida o'zaro ichki urushlarga barham berilib, iqtisodiy o'sish jarayoni boshlandi. Tarixiy manbalar, arxeologik tadqiqotlar Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmning 1372–1388-yillarda Movarounnahrqa qo'shib olinishi natijasida viloyatdagi shahar madaniyatining o'sishi to'xtamaganligini ko'rsatadi. Eski karvon yo'llari harakatda bo'ldi, yangi inshootlar qurildi, hunarmandchilik o'sdi. Gurganjning Toshqal'a deb nomlangan mavzesi 1391-yili Amir Temur farmoni bilan qayta tiklangan, shu davrning o'zidayoq savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan.

Shunday qilib, biz to'xtalib o'tgan materiallar asosida aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davrida Xorazm Movarounnahr bilan qadim zamonlardan boshlangan madaniy aloqalarini davom ettirdi. Bu madaniy aloqa ko'plab bevosita va bilvosita dalillar orqali o'z isbotini topganligi barobarida, bizgacha yetib kelgan kulolchilik namunalari, monumental obidalarni bezash san'atida yaqqol ko'rinadi.

Umuman olganda, yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar asosida XIV–XV asrlar, ya'ni temuriylar davrida Janubiy Orolbo'yi, voha hududida eski shaharlar Gurlan, Kat, Hazorasp, Xiva, Xonqa, Gurganj, Vazir, Adoq, Shemaxaqal'a, Tersek va Qumkent qishlog'ining mavjudligini ko'rsatadi. Boshqa shahar madaniyati yodgorliklari Bag'dod, Bug'raxon (Medmaniya, Xovand), Puljoy, Mizdahkon temuriylar zamonidan keyingi davrda savdo aloqalarining buzilishi sababli o'zining rivojlanishini asta-sekin yo'qota boshlaganini ko'rsatadi. Yozma manbalardan biz Xorazmdagi Amir Temur va temuriylar davri bilan bog'liq boshqa masalalarga oid, jumladan, yo'llar ("Sepoya" – Uch o'choq, "Shahriston yo'li"), gidrotoponimlar ("Eski O'kuz", "Fatima-xatun", "Asaf O'kuz"), kanallar (Bag'dodik, Sedraj, Gurlan), Eski Amudaryo havzalari (O'zboy, Urundaryo, Sariqamish, Daryoliq va Xeykanik) to'g'risida ma'lumotlarga egamiz. Bu ma'lumotlar Xorazmning temuriylar davridagi tarixiy va iqtisodiy holati, elatlar, quruqlik va suv yo'llarining joylashishi kabi ma'lumotlarni ilk bor qiyosiy jihatdan mukammal o'rganishda qo'shimcha manba hisoblanadi.

Xorazmning g'arbiy hududlaridagi geomorfologik, arxeologo-topografik tadqiqotlar Vazir-Devkesgan, Adaq (Oq qal'a), Shemaxaqal'a, Butentau, O'zboy va Sariqamish atroflarida temuriylar davri shahar va qishloqlar ancha ko'p joylashgan hududlarning biri ekanligidan dalolat beradi. Umuman, biz yuqorida ta'kidlagandek, Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmda bunyodkorlik ishlari tashkil qilindi. Shimoli-g'arbiy Xorazmda yangi shahar madaniyati bosqichi – temuriylar davri boshlandi, deb ta'kidlash mumkin. Bunga misol sifatida Xorazmning XIV asr oxiri – XV asrga oid bir necha yodgorliklarida madaniy qatlam, topilmalar, temuriylar tangalari mavjudligi, yangi masjid va maqbaralarning qurilganligini ko'rsatish mumkin.

Xulosa. Xulosa sifatida shularni ko'rsatish mumkin, Amir Temurning maqsadi Chig'atoy ulusini o'z qo'li ostida birlashtirishga qaratildi, Xorazmga yurishlarning sababi ham shunga

borib taqaladi. Keyinchalik butun Xorazm hududlari yagona saltanat tarkibiga birlashtirildi. Amir Temur uchun Chingizxon ideal, Chig'atoy esa ulkan hurmat-ehtiromga loyiq zotlar qatorida bo'lgan. Ular tomonidan joriy etilgan tartib-qoidalarni qayta tiriltirish yo'lida jiddu jahd qilingan Xorazm da'vosi ham aynan shu bilan izohlanadi;

fath jarayonida shahar va qal'alarni buzishdan maqsad – siyosat, qo'rqitish, itoatga kirgizish, sarkashlikni sindirishni ko'zlamagan. Asl maqsad esa bunyod etish, aholini farovonlikka olib chiqish, adolat o'rnatish, markaziy hokimiyatga so'zsiz itoat etish shartligini singdirishdan iborat bo'lgan. Raiyatni qo'rquv va umid o'rtasida saqlash usuli shuni taqozo etgan;

Amir Temur va temuriylarning Xorazmni egallashi tufayli mahalliy zodagonlar – Qo'ng'irot So'filarining Oltin O'rda xonlaridan bo'linish harakati birmuncha kuchaydi, bu hududning kuchli davlat tasarrufida bo'lishi iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat va shaharsozlikning qaytadan rivojlanishiga sabab bo'ldi, savdo aloqalari yanada avj oldi;

Amir Temur olib borgan siyosat Markaziy Osiyo hududlarida shaharlar, hunarmandchilik, savdo, madaniyat va ma'rifiy o'sishni, integratsiyalashuvni ta'minladi. O'zaro hamkorlik yuzaga kelib, vohaning chuqur ildizga ega boy madaniyati uslub va namunalardan saltanat doirasida, xususan, Shahrisabz, Samarqand va Turkistonning ajoyib inshootlarini qurishda foydalanildi. Shu tariqa Xorazm va Movarounnahr moddiy madaniyatidagi uzviylik va hamkorlikka asoslangan an'analar uzluksiz davom etdi;

Temuriylar davrida Xorazmning qadimiy boy intellektual salohiyati yanada rivojlandi. Amir Temur davrida Movarounnahr shaharlarining o'sishiga muhit yaratildi. Markazlashgan davlatga qo'shilgan Xorazm shaharlari osoyishta holatga o'tib, o'zaro ichki urushlardan xalos bo'ldi;

Temur o'z islohotchilik faoliyati orqali viloyat shaharlarini obodonlashtirish va savdo ishlarini kengaytirish orqali yirik savdo yo'llaridagi savdo munosabatlarini rivojlantirishga intilgan. Amir Temur va temuriylar davrida Xorazm shaharsozlik madaniyati va iqtisodiyotida yuzaga kelgan ijobiy o'zgarishlar so'nggi arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan to'liq tasdiqlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdurazzoqov A.A. Amir Temur davrida shishasozlik va koshinkorlik sohasidagi yangiliklar // ONU. 1996. – №3-4. – B. 62.
2. Alimov O'. O'rta asrlarda Movarounnahrda bog'chilik xo'jaligi tarixi. – Toshkent, 1984. – B. 38.
3. Аҳмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур. Жизнь и общественно-политическая деятельность. – Ташкент, 1999. – С. 36.
4. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Соч. Том II. Часть I. – М., 1963. – С. 266.
5. Булатов Н.М. Кобальт в керамике Золотой Орды // Советская Археология (СА) – Российская Археология (РА). 1974. – №4. – С. 138.
6. Вактурская Н.Н. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. // ТХАЭЭ. Том II. – М., 1958. – С. 467-497.
7. G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. – Toshkent, 1959. – B. 178.
8. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-Maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). 1-kitob. So'zboshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan. Mas'ul muharrir: A.O'rinboyev. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 15.

9. Кдырнийзов М.-Ш. Материальная культура городов Хорезма XIII-XIV вв. – Нукус: Каракалпакстан, 1989. – С. 69-70.
10. Кдырнийзов М.-Ш. Темуридская керамика Хорезма // Вестник ККО АН РУ. 2005. – №1. – С. 119.
11. Орлов М.А. Памятники садово – паркового искусства средневекового Хорезма // ТХАЭЭ. Том I. – М., 1952. – С.164, 156-167.
12. Pugachenkova G.A. Temurning me'moriy merosi. – Toshkent, 1996. – B. 16, 72, 78.
13. Пугаченкова Г.А. Садово-парковое искусство Средней Азии в эпоху Тимура и Тимуридов // Труды САГУ. Новая серия, вып 23. Гуманитарные науки. Кн. 4. История. – Ташкент, 1951.
14. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: Изд-во МГУ, 1948. – С. 284, 300, 312.
15. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – С. 300.
16. Федоров-Давыдов Г.А. Раскопки торгово-ремесленного квартала XV-XVII вв. на городище Таш кала в Ургенче // ТХАЭЭ. Том II. – С. 505-528.
17. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / Muhammad Ali ibn Darvish Ali al-Buxoriy tarjimasi. So'zboshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari A.Ahmad va H.Bobobekov. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 119.
18. Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча // Известия ГАИМК. Том 6, вып. 2. – Л., 1930. – С. 58-59.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).